

**AKADEMIK VOKAL DARSLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY
METODIK YONDASHUVLAR (IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTABLAR
MISOLIDA)**

Rahmonova Mehribon Abdimuminovna

*Navoiy ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi "Akademik vokal" mutaxassisligi
o'qituvchisi*

Abstrakt: *This article examines the issues of improving academic vocal lessons in specialized art schools through the application of modern pedagogical approaches. The purpose of the study is to determine the effectiveness of learner-centered, competency-based, and activity-oriented approaches in developing students' vocal and performance skills. The research methodology includes analysis of scientific and methodological literature, pedagogical observation, interviews, and experimental teaching methods. Experimental work was conducted with students of specialized art schools specializing in academic vocal performance. The results demonstrate that academic vocal training organized on the basis of modern pedagogical approaches significantly improves diaphragmatic breathing techniques, articulation and diction accuracy, resonance control, and intonation stability. In addition, positive changes were observed in vocal timbre quality, range expansion, and the development of stage performance skills. The findings confirm that the systematic application of modern pedagogical approaches enhances the overall effectiveness of academic vocal education. The study substantiates the necessity of integrating these approaches into the educational process of specialized art schools and provides a scientific and methodological basis for improving academic vocal teaching practices.*

Keywords: *academic vocal, specialized art schools, vocal education, pedagogical approaches, breathing technique, resonance.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida akademik vokal darslarini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi akademik vokal ta'limi jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatiga asoslangan yondashuvlarning vokal-ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, suhbat hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilar ishtirokida olib borildi. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan akademik vokal mashg'ulotlari o'quvchilarning diafragma orqali nafas olish texnikasi, artikulyatsiya va diktsiya aniqligi, rezonansni boshqarish hamda intonatsiya barqarorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdik, ovoz tembri va diapazonining kengayishi, sahnaviy ijrochilik madaniyatining rivojlanishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari akademik vokal*

darslarini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini asoslab beradi hamda ularni san'at maktablari amaliyotida qo'llash uchun ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *akademik vokal, san'at maktablari, vokal ta'limi, pedagogik yondashuvlar ,nafas texnikasi ,rezonans ,diafragma ,artikulyatsiya, diktsiya, ovoz tembr, diapazon.*

KIRISH

Bugungi kunda musiqa ta'limi tizimida akademik vokal san'atini o'qitish masalasi muhim pedagogik va metodik muommalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida vokal ijrochiligini shakllantirish jarayoni o'quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ilmiy asoslangan, yizimli va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Akademik vokal darslarida ovoz apparatini to'g'ri rivojlantirish, nafas olish texnikasi, artikulyatsiya va rezonans ustida ishlash ijrochilik mahoratini shakllantirishning asosiy omillari sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda musiqa ta'limi jarayoniga innovatsion va interfaol metodlarni joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida akademik vokal darslari ko'pincha an'anaviy yondashuvlar asosida olib borilmoqda, bu esa o'quvchilarning vokal-ijrochilik salohiyatini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilmoqda.

Natijada, ovoz imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanmaslik, nafasni boshqarishdagi qiyinchiliklar, tovushning barqaror emasligi kabi muommalar yuzaga kelmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar-kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatiga asoslangan ta'lim texnologiyalari akademik vokal darslarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu yondashuvlar orqali o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy tafakkuri hamda sahnaviy madaniyatini rivojlanadi. Shu bois, akademik vokal darslarini takomillashtirishda zamonaviy metodik tizimni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida akademik vokal ta'limini tashkil etish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ilmiy-metodik asoslarini aniqlash hamda ularning amaliy samaradorligini asoslab berish bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Akademik vokal san'atini o'qitish metodikasi vokal pedagogikasi sohasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asoslab berilgan. L.B. Dmitriyev vokal ijrosida nafas texnikasi va rezonans tizimi hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlab, diafragma orqali to'g'ri nafas olish ovoz barqarorligi va tembr sifati uchun asosiy omil ekanligini ko'rsatadi. Muallifning fikricha, nafasni boshqarish vokal texnikaning poydevori

hisoblanadi. N.Ye. Vasilenko akademik vokalni o'qitishda metodik tizimlilik zarurligini asoslab, vokal mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich va izchil tashkil etish lozimligini qayt etadi.

Bu yondashuv vokal ko'nikmalarini shakllantirishda metodik ketma-ketlik muhimligini ko'rsatadi. O'zbek olimlaridan A.A. Abdiqodirov va B.X. Yakubov musiqa ta'limida zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini yoritib, shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy ta'lim vokal darslari samaradorligini oshirishini takidlaydilar. Ularning ilmiy qarashlarida o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish ta'lim sifatini oshiruvchi omil sifatida ko'rsatiladi.

D.SH. Karimova artikulyatsiya va diktsiya ustida ishlash vokal nutq ravonligini ta'minlashini ilmiy jihatdan asoslaydi. Bu qarash vokal ijrochiligida so'z va musiqaning uyg'unligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tadqiqotchilardan R. Miller va J.C. McKinney ovoz apparati tuzilishi, rezonans tizimi hamda vokal kamchiliklarni bartaraf etish masalalarini chuqur tahlil qilganlar. C. Sadolin esa zamonaviy vokal mashqlar tizimini ishlab chiqib, ovoz imkoniyatlarini kengaytirish yo'llarini ko'rsatadi. M.R. Ismailova ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida musiqa ta'limini tashkil etishning amaliy jihatlarini yoritib, metodik tavsiyalar beradi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, vokal pedagogikasidan nafas, rezonans, artikulyatsiya hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida kompleks takomillashtirish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Mazkur tadqiqot ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida akademik vokal darslarini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot tizimli yondashuv asosida tashkil etilib, nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv va tajriba-sinov metodlari uyg'unligida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi-ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida akademik vokal darslarini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quydagilardan iborat:

- akademik vokal ta'limiga oid ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish;
- vokal darslarida qo'llanilayotgan mavjud metodlarni o'rganish;
- zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish;
- tajriba-sinov ishlari orqali ularning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot bazasi va ishtirokchilari

Tajriba-sinov ishlari ixtisoslashtirilgan san'at maktablarining vokal bo'limida tahsil olayotgan o'quvchilar ishtirokida o'tkazildi. O'quvchilar tajriba va nazorat

guruhlariga ajratildi. Guruhlar yosh xususiyatlari, vokal tayyorgarlik darajasi va o'quv dasturi talablariga muvofiq shakllantirildi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- akademik vokal ta'limiga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- vokal darslarida o'quvchilarning ijrochilik faoliyatini pedagogik kuzatuv orqali o'rganish;

- suhbat va savolnoma metodlari yordamida o'quvchilarning vokal mashg'ulotlarga munosabatini aniqlash;

- tajriba-sinov mashg'ulotlarini tashkil etish;

- taqqoslash va umumlashtirish metodlari asosida natijalarni tahlil qilish.

Tajriba-sinov ishlari mazmuni

Tajriba guruhi bilan olib borilgan mashg'ulotlar zamonaviy pedagogik yondashuvlar- shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatiga asoslangan ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etildi. Mashg'ulotlar jarayonida vokal tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari bo'yicha tizimli ish olib borildi.

- diafragma orqali nafas olish texnikasini shakllantirish;

- artikulyatsiya va diktsiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar;

- rezonansni faollashtirish orqali ovoz tembrini boyitish mashqlari;

- tovushni to'g'ri chiqarish va ovozni asrash qoidalarini o'rgatish.

Nazorat guruhida esa akademik vokal darslari amaldagi an'anaviy metodlar asosida olib borildi.

Baholash mezonlari

O'quvchilarning vokal-ijrochilik ko'nikmalarini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirildi:

- nafas olish texnikasining to'g'riligi va barqarorligi;

- intonatsiya aniqligi;

- artikulyatsiya va diktsiya darajasi;

- ovoz tembr va diapazonning rivojlanganligi;

- sahnaviy ijrochilik va emotsional ifodalilik.

Mazkur mezonlar asosida tajriba oldi va tajriba yakunida olingan natijalar o'zaro taqqoslandi hamda tahlil qilindi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida akademik vokal darslarini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning vokal-ijrochilik ko'nikmalaridagi o'zgarishlar tajriba oldi va tajriba yakunidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi.

Tajriba natijalar shuni ko'rsatadiki zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning nafas olish texnikasini to'g'ri

shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan diafragma orqali nafas olish texnikasini to'g'ri shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, diafragma orqali nafas olish ko'nikmasi tajriba guruhida o'quvchilarning ijrosida matnning ravonligi, talaffuzi shakllandi. Tajriba guruhida o'quvchilarning ijrosida matnning ravonligi, talaffuz aniqligi va musiqiy ifodalilik darajasi oshgani kuzatildi. Nazorat guruhi bilan solishtirganda, tajriba guruhidagi o'quvchilarning vokal nutqi yanada erkin va tushunarli bo'ldi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida akademik vokal darslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning vokal-ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar vokal pedagogikasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar xulosalari bilan uyg'un ekanligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, diafragma orqali nafas olish texnikasini tizimli o'rgatish vokal ijroning barqarorligini ta'minlagani, uzoq frazalarni uzluksiz ijro etish imkoniyatini kengaytirgani kuzatildi. Bu holat vokal pedagoglari tomonidan ilgari surilgan nafas texnikasining asosiy o'rin tutishi haqidagi ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida nafasni nafasni boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishi intonatsiya aniqligi va tovush sifatining yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Artikulyatsiya va diktsiya ustida olib borilgan maqsadli mashg'ulotlar o'quvchilarning vokal nutqini erkinlashtirishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, so'zlarning aniq talaffuzi va matnning ifodali yetkazilishi musiqiy obrazni to'laqonli ochib berishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Bu esa vokal ijrochiligida musiqiy va badiiy ifodalilikning uyg'unligini ta'minlash zarurligi haqidagi ilmiy qarashlar bilan hamohangdir.

Rezonans ustida ishlashga asoslangan mashqlar ovoz tembrining boyishi va diapazonning kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari rezonansni faollashtirish orqali tovushning tabiiy jarangdorligini oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Ushbu holat vokal san'atida ovoz apparatidan to'g'ri foydalanish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan xulosalarni tasdiqlaydi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning ijrochilik faolligi va mustaqil mashq qilishga bo'lgan qiziqishni oshirdi.

Bu jarayonda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati alohida namoyon bo'ldi. O'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish, vokal materialni bosqichma-bosqich murakkablashtirish va reflektiv tahlil elementlaridan foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirdi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida akademik vokal darslarini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan asosli ekanligini ko'rsatadi.

Olingan xulosalar akademik vokal ta'limi metodikasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida akademik vokal darslarini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishning ilmiy-amaliy samaradorligini asoslab berdi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalar akademik vokal mashg'ulotlarini tizimli va maqsadli tashkil etish o'quvchilarning vokal-ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida olib borilgan mashg'ulotlar natijasida o'quvchilarning diafragma orqali nafas olish texnikasi, intonatsiya aniqligi, artikulyatsiya va diktsiya ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilanadi. Shuningdek, rezonans ustida ishlashga qaratilgan mashqlar ovoz tembrining boyishi hamda diapazonning kengayishiga xizmat qildi. Bu holat akademik vokal ijrosining sifat jihatdan oshishiga olib keldi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan vokal darslari o'quvchilarning ijrochilik faolligini oshiradi, mustaqil mashq qilish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda sahnaviy madaniyatini rivojlantiradi. Mazkur yondashuvlar akademik vokal ta'limining samaradorligini oshirishda muhim metodik omil sifatida namoyon bo'ladi. Olingan natijalar ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida akademik vokal darslarini takomillashtirish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot xulosalari akademik vokal ta'limi metodikasini boyitishga, shuningdek, vokal o'qituvchilari faoliyatida amaliy qo'llanma sifatida foydalanishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dmitriyev L.B. Osnovy vokalnoy metodiki. - Moskva: Muzyka, 2004. - 112-145-betlar.
2. Vasilenko N. Ye. Vokalnoye iskusstvo I pedagogika. - Moskva: Iskusstvo, 2006. - 78-101-betlar.
3. Abdiqodirov A.A. Musiqa ta'limi metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2018. - 54-76-betlar.
4. Karimova D. SH. Vokal san'ati asoslari. - Toshkent: San'at, 2020. - 33-39-betlar.
5. Yakubov B. X. Musiqa pedagogikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. - 91-120-betlar.
6. Miller R. The Structure of Singing: System and Art in Vocal Technique. - New York; Schirmer, 2000. - pp. 65-98.

7.McKinney J.C.The Diagnosis and Correction of Vocal Faults.-
Nashville:Genevox Music Group,2005.-pp.102-136.

8.Sadolin C.Complete Vocal Technique.-Copenhagen:CVI,2012.-pp.41-70.

9.Ismailova M.R.Ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida musiqa ta'limini
tashkil etish.-Toshkent,2021.-88-104-betlar.